

## MAKTABGACHA TA'LIMDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

*Saidova Dilnoza Baxtiyor qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti*

[saidovadilnoza366@gmail.com](mailto:saidovadilnoza366@gmail.com)

ORCID:009000467960724

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati va o'rganish jarayonida tilni samarali va zavqlanib o'rganishga doir fikrlar taqdim etilgan. Mamlakatimizda litsey va oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda innovatsion va pedagogik texnologiyalarni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maqolada xorijiy tillarni o'qitishda pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni haqida yetarlicha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim texnologiyalari, metodologiya, kommunikatsiya, ta'lim, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, nazariya.

**Annotation:** This article presents the importance of learning foreign languages and thoughts on effectively and enjoyably learning a language during the learning process. Great attention is being paid to the introduction of innovative and pedagogical technologies in teaching English in lyceums and higher education institutions in our country. The article provides sufficient information about the role of pedagogical and information technologies in teaching foreign languages.

**Keywords:** educational technologies, methodology, communication, education, pedagogical technologies, interactive methods, theory.

**Аннотация:** В этой статье представлены взгляды на важность изучения иностранных языков и на то, как изучать язык эффективно и с удовольствием. В нашей стране большое внимание уделяется внедрению инновационных и педагогических технологий в преподавание английского языка в лицеях и вузах. В статье представлена достаточная информация о роли педагогических и информационных технологий в обучении иностранным языкам.

**Ключевые слова:** образовательная технология, методология, коммуникация, образование, образовательная технология, интерактивные методы, теория.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, mamlakat barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini tashkil etish hamda yangi demokratik huquqiy davlat qurish yo'lini tanladi. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga asosan, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlariga javob beradigan ijtimoiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi deb belgilandi. Ta'lim tizimini isloh qilish mamlakatda yangi samarali ta'lim usullari, axborot texnologiyalari va imkoniyatlarni joriy etishni taqozo etadi. "O'zbekistonning yangi pedagogik va axborot texnologiyalari ta'limning barcha sohalariga – o'quv jarayoni, ma'muriy boshqaruv, ilmiy faoliyatga joriy qilinmoqda" [7, 40]. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarining yutuqlari uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida samarali o'qitish usullaridan foydalanishni ta'minlash imkonini berdi. Innovatsion yutuqlar, barcha darajalarda sifatli ta'lim tizimining shakllanishini talab qiladi. O'qitish va o'rganish tizimini kengaytirish, yangi o'qitish usullarini qo'llash nuqtai nazaridan yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi hali to'liq rivojlanmagan. Pedagogik va axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi ta'limni

moslashuvchan, kam xarajatli va samarali qilish imkonini beradi, bu esa talabalarga oliy ta'limning tegishli mutaxassisliklarini o'rganish imkoniyatini yaratadi. "Chet tillarni o'qitishning asosiy maqsadi talabalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish, chet tilini amaliy o'rganishga o'rgatishdan iborat" [2].

O'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o'rganish uchun qulay sharoitlar yaratish va har bir talabaga o'z faoliyatini va ijodkorligini namoyish etish imkoniyatini taqdim etadigan ta'lim usullarini tanlashdir. O'qituvchining mas'uliyati xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalarni bilim faoliyatini faollashtirishdan iborat. Xorijiy tillarni o'qitishda talabalarga quyidagi metod va usullarni taqdim etish mumkin: hamkorlikda o'qitish, loyiha usullari, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internet-resurslar va masofaviy o'qitish kabi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish shaxsiy yo'naltirilgan va differentsiatsiyalashgan yondashuvni ta'minlaydi.

Yosh avlodni chet tillarida o'qitish va bu tillarda erkin so'zlashuvga ega mutaxassislarni tayyorlash maqsadida, jahonning sivilizatsion yutuqlariga asoslanib, yoshlarning global axborot resurslaridan foydalana olishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish zarurati paydo bo'ladi. Shu sababli, chet tillarini o'rganish bugungi kunda eng muhim talabga aylangan. Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi, globallashuv va raqobatning kuchayishi, shuningdek, demokratik taraqqiyot va modernizatsiya maqsadlariga erishishda bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri bo'lmoqda. Chet tilida so'zlashishga o'rgatish chet tili darslarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Birinchi Prezidentimizning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda chet tillariga bo'lgan e'tiborni yanada oshirganini ko'rsatadi. Ta'lim tizimida o'quvchilarni keng bilim va professional malakalar bilan ta'minlash, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali chet tillarni o'qitishning yangi usullarini joriy etish, shuningdek, mutaxassislarni tayyorlash yosh avlodga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Buning natijasida ular jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanib, ulkan intellektual boylikka ega bo'lishadi. Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyasi, ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi yoshlarning ko'p madaniyatli dunyoda raqobatbardosh bo'lishini ta'minlash uchun bir nechta chet tillarni mukammal bilishni talab qiladi, bu esa O'zbekistonning ta'lim tizimida xalqaro standartlarni joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Yevropa Kengashining "Chet tilini o'rganishning umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash" nomli hujjati dunyoda keng qabul qilingan xalqaro meyorlardan biridir. Ushbu hujjat asosida O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida chet tilini o'rganish uchun yangi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi ishlab chiqildi. 2013-2014 o'quv yilidan boshlab maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari uchun xorijiy tilni o'qitish dasturi ta'lim muassalarida muhim bir yangilik bo'ldi. Shu sababli, ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Mavzuning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tili darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish masalalarini batafsil o'rganishdir. Taniqli olimlarning ilmiy ishlari asosida, mavzu bo'yicha masalalarni tahlil qilish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni qo'llash haqida to'liq ma'lumot berish maqsad qilinadi. Maktabgacha ta'limda chet tilini o'rgatishda didaktik o'yinlarni joriy etish, o'qitish tamoyillari va metodlarining o'zaro aloqadorligini nazariy jihatdan tahlil qilish va

bu aloqadorlikni o'quv jarayoniga qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda pedagogik texnologiyalarni o'rganish ham tadqiqotning asosiy yo'nalishidir. Shuningdek, dunyoning rivojlangan davlatlarining samarali o'qitish usullarini o'rganib, ingliz tilini o'rgatishda interfaol uslublarni tavsiya etish va ular asosida mashg'ulotlarda foydalanish taklif etiladi. Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rgatish bo'yicha innovatsion pedagogik texnologiyalarning tatbiqi haqidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ko'rib chiqildi. Tadqiqotda o'quv materiallarini loyihalashning metodik va didaktik asoslari ham takomillashtirildi. Texnologik va tizimli yondashuv asosida tayyorlangan dars ishlanmalari o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga yordam berdi. Tadqiqotning natijalari, shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan o'quv materiallari boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rgatishda aniq mavzular bo'yicha darslarni tashkil etishda foydalanish mumkin. Til insonlar orasida muloqot qilishning eng asosiy vositasi hisoblanadi. U orqali odamlar o'z fikrlarini va his-tuyg'ularini ifodalaydi. Til jamiyatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Til paydo bo'lganidan keyin jamiyatning rivojlanishi tezlashgan. Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lishi mumkin emas, chunki til ijtimoiy hodisa bo'lib, faqat jamiyat a'zolari yordamida shakllanib, rivojlanadi.

Chet tilini o'rgatishning barcha asosiy komponentlari — maqsad, metod va vositalar, o'quv fan mazmuni bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Chet tilini o'rgatishning asosiy maqsadi — muomala qoidalarini o'rganish, o'z fikrini erkin ifodalash va oddiy kommunikativ vaziyatlarda suhbatlashish malakalarini shakllantirishdir. Shu bois, ta'lim mazmunini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan, bilim, ko'nikmalar va malakalarga qo'shimcha ravishda umuminsoniy madaniyatni shakllantiruvchi ijodiy faoliyat tajribasi, shuningdek, atrof-muhitga nisbatan munosabatlarni ham o'z ichiga oladigan tarkibni kiritish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni nutq faoliyatining tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Chet tilini o'rgatish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va amaliyotda qo'llash zarur. Hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilayotgan va ijobiy natijalar berayotgan bir qator zamonaviy pedagogik texnologiyalar mavjud, ularni chet tilini o'qitishda qo'llash esa bir nechta omillarni talab qiladi. Eng muhimi, ta'lim tizimiga pedagogik innovatsiyalarni kiritish, ulardan samarali foydalanish va rivojlangan davlatlardagi pedagogik texnologiyalar markazlarini o'rganish asosida mamlakatimizda chet tilini o'qitish bo'yicha zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari markazlarini tashkil etish, ularni kelajakda samarali ishlatishdir. Xulosa qilib aytganda, chet tili ta'limi, boshqa ilm sohalari kabi, o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega. Maqsad shundan iboratki, o'quvchilar tilni faqat o'rganib qolmasdan, uning go'zalligini ham his etishlari, til sezgirligini rivojlantirishlari va nutq vaziyatiga qarab ingliz tilini to'g'ri va savodli foydalanish malakalariga ega bo'lishlari kerak. Olimlarning ta'kidlashicha, har bir inson kamolot sari intiladi. Jamiyatda yashash uchun tug'ma iste'dodlar yetarli emas, inson tarixiy taraqqiyot jarayonida jamiyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklardan bahramand bo'lishi va ularni o'rganishi, o'zlashtirishi lozim. Insoniyat tarixida to'plangan barcha tajribalarni o'rganish, o'zlashtirish zarurati mavjud. Yillar o'tishi bilan ajdodlar o'rnini yangi avlodlar egallaydi, lekin ajdodlar qoldirgan boy madaniy meros avloddan avlodga o'tib, boyib, rivojlanib, takomillashadi. Til — bu noyob madaniy meros bo'lib, u orqali o'zaro fikr almashiladi, hissiyotlar ifodalanadi va insoniyatning to'plagan tajribalari bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

Muloqot vositalari ko'p, biroq faqat til orqaligina fikringizni, quvonch va tashvishlaringizni, hissiyotlaringizni ifodalash mumkin. Boshqa vositalar inson ruhiyatini, hissiyotlarini tilchalik ifodalay olmaydi. Darhaqiqat, kishilik jamiyatida biror - bir jarayon yo'qki, til ishtirok etmagan bo'lsin. Zero, tilning ana shunday beqiyos imkoniyatlaridan o'quvchi – yoshlarni barhamand etish, ona tilimiz bilan bir qatorda chet tillarga hurmat – ehtirom tuyg'ularini tarbiyalash ushbu soha mutaxassislari zimmasidadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- [1] Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovacion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
- [2] Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.-T.: Sharq, 1999,5-maxsus son.
- [3] Абасов, З. А. Ученик как субъект педагогической технологии / З. А. Абасов // Школьные технологии. - 2001. - № 2. - с. 39-44.
- [4] Аллаярова, С. Н. (2019). ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА АКТЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ОЛИЙ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Журнал Социальных Исследований*, (6).
- [5] Ашурова Д.У. Преподавание лингвистических дисциплин в языковом вузе. Сборник научных трудов по материалам Четвертой Международной научно-практической конференции (г. Воронеж, 19–20 февраля 2019 г.)
- [6] Волков, Ю. Традиционные и новые технологии обучения: "принцип дополнительности" / Ю. Волков // Высшее образование в России. - 2003. с.35-43.
- [7] Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001
- [8] Отабоева, М. Р. Чет тилини о'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — с. 36-37.